

4K KOMPENTENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNINI

Boboyeva Nafosat Tulqin qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada 4K kompetensiyalari – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiyani rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritiladi. Darslikdagi matnlar, mashqlar va til hodisalari asosida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: 4K kompetensiyalari, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik, kollaboratsiya, ona tili, 6-sinf.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития компетенций 4К – креативности, критического мышления, коммуникативности и коллаборации. Анализируются возможности формирования данных компетенций на основе текстов и упражнений учебника.

Ключевые слова: Компетенции 4К, креативность, критическое мышление, коммуникация, коллаборация, родной язык.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations for developing 4C competencies – creativity, critical thinking, communication, and collaboration. It analyzes how textbook texts and exercises support the formation of these essential 21st-century skills.

Keywords: 4C competencies, creativity, critical thinking, communication, collaboration, native language.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivoji va mehnat bozori talablarining o'zgarishi bilan bevosita bog'liq holda yangilanib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, XXI asr ko'nikmalari sifatida e'tirof etilayotgan 4K kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash (critical thinking), kreativlik (creativity), kommunikativlik (communication) va hamkorlik (collaboration) – ta'lim mazmunining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Mazkur kompetensiyalarni samarali shakllantirish o'qitish jarayoniga yangicha yondashuvni, xususan, interfaol metodlardan keng foydalanishni talab etadi. Interfaol metodlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, muloqot madaniyatini shakllantirish hamda fikrni erkin va asosli ifodalash imkonini yaratadi. Shuningdek, interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ularni muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga undaydi hamda real hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanligini

ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, 4K kompetensiyalarining kompleks rivojlanishiga zamin yaratadi.

Mazkur maqolada 4K kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rnini, ularning pedagogik imkoniyatlari hamda amaliy qo'llash yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi interfaol metodlar. 5-sinf ona tili darslikda o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ salohiyatini oshirish uchun bir qator interfaol metodlar qo'llanilgan. Jumladan, darslikning 64-betida keltirilgan "Lug'at kitobchasi" loyihasining ikkinchi bosqichida o'quvchilarga "Guruh a'zolari bilan kelishgan holda muqovani bezating" degan vazifa beriladi. Bu jarayonda o'quvchilar:

1. Fikrlarini o'zaro muvofiqlashtiradilar (kommunikatsiya)
2. Vazifalarni taqsimlab, jamoada ishlaydilar (kollaboratsiya)
3. O'zaro yordam berish orqali ijtimoiy mas'uliyatni his qiladilar.

Bundan tashqari, bu topshiriq o'quvchilarning kretivlik va kritiklik qobiliyatini shakllantirishda ham muhim. Kitobchaning yuzini bezatishda o'zgacha yondashuv ularning qay darajada ijodkorligini ko'rsatib beradi. Bu topshiriq fanning tasviriy san'at fani bilan integratsiyasini yuzaga chiqaradi. Bu ham soha yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ba'zi o'quvchilar ona tili fanidan ko'ra tasviriy san'at faniga qiziqishadi bu topshiriq esa har ikkalasini bir paytda bajarishga undaydi. Shuningdek muloqot madaniyatini shakllantirishda "Oila a'zolari bilan ismlar haqida suhbatlashing" yoki "Partadoshingizdan yashash manzilini so'rang" kabi hayotiy topshiriqlar ham berilgan. Bu topshiriqlar o'quvchilarning kommunikativlik qobiliyatini shakllantirishda va atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishida muhimdir. Bu mavzular suhbat qurayotgan har ikkala tomon uchun ham birdek qiziq. Bu esa suhbatning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Suhbat o'quvchilar uchun shunchaki ko'ngilochar mashg'ulot emas bir paytning o'zida ijtimoiy muhit bilan qanday aloqaga kirishishni o'rganish jarayonidir.

Ildiy (kreativ) yondashuv va loyiha ishini tashkil etish. Darslikda kreativlikni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. "Jonajon Vatanim" loyihasi doirasida o'quvchilarga Vatanga muhabbatni "she'r, hikoya, surat yoki qo'shiq" kabi o'zlariga yoqqan usulda ifodalash imkoniyati beriladi. Bu jarayonda o'quvchi ma'lum she'r aytish bilan bir qatorda odamlar oldida o'zini qanday tutish, hayajonini yengishga ham o'rganadi. Bu undagi erkin muloqot qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Hikoya va rasm asosida Vatanga muhabbatni namoyon qilish ham o'quvchining ijodiy mahoratini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Dars jarayoniga bu kabi qiziqarli loyihalarni taqdim etish o'quvchilarni har tomonlama o'sishiga zamin yaratadi. Bunday erkinlik o'quvchining ichki iqtidorini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi yana bir metod bu – "Sinkveyn" (besh qatorli she'r) metodidir. Darslikda "Vatan" so'zi misolida keltirilgan namuna o'quvchining so'z boyligini oshirish bilan birga, tushunchalarini ixcham va mazmunli ifodalashga o'rgatadi. O'quvchi 1-qatorga ot, 2-qatorga sifat, 3-qatorga harakat va 4-qatorga gap yozish orqali mantiqiy-ijodiy fikrlash zanjirini quradi. Bu metod o'quvchida faqatgina ijodkorlikni shakllantirmaydi. "Sinkveyn" o'quvchilarga grammatikani ham qiziqarli tarzda o'rganishga imkon beradi. Bu metod orqali ularda so'z turkumlari haqida ham bilim shakllanadi. Eng muhimi so'z

turkumlari bo'limini shunchaki zerikarli qoidalar asosida emas, qiziqarli va ijodiy metod orqali o'rganishadi. Tanqidiy (kritik) fikrlashda matn tahlili. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi darslikdagi matnlar ustida ishlash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, "Qishda deraza oynalaridagi naqshlar" mavzusidagi topshiriqda o'quvchilardan berilgan ma'lumotlarning "fakt yoki fikr" ekanini aniqlash so'raladi.

- "Suvning muzlash nuqtasi 0 daraja" – Fakt.
- "Bolalar oynadagi naqshlarni tomosha qilishni yoqtirishadi" - Fikr.

Ushbu tahlil o'quvchiga axborot oqimida ishonchli dalillarni shaxsiy munosabatdan ajrata olishni o'rgatadi. Biz axborot chek-chegarasiz bo'lgan texnikalar davrida yashayapmiz. Ular shu qadar ko'p va qiziqarli, haqiqiy yoki soxta axborotlarni farqlash juda mushkul. Ularga ishonish esa oson. Bunday oqimda turli soha bilimdoni bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash muhimdir. Shuningdek, Abdulla Oripovning "g'aliz jumla" haqidagi fikrlari asosida berilgan mashqlar o'quvchida o'z nutqiga tanqidiy qarash ko'nikmasini uyg'otadi. "Ravon jumla" va "G'aliz jumla" ni qiyoslash orqali o'quvchi nutqidagi mantiqiy xatoliklarni (masalan, "ikkita semiz kitob" emas, "ikkita qalin kitob") tuzishni o'rganadi. O'zbekiston hududida yashovchi aholi turli lahjalarda suhbatlashishadi. Bu ular uchun odat tusiga kirgan. Bunday so'zlarning ba'zilari g'aliz jummalarni keltirib chiqarishini bilmasliklari mumkin. Masalan, Samarqandni ayrim hududlarida "emas" to'liqsiz fe'li o'rniga "yo'q" so'zini ishlatishadi. Masalan, "Bu ishing yaxshi emas" gapini "Bu ishing yaxshi yo'q" kabi aytishadi. Bu esa g'alizlikni yuzaga chiqaradi. Natijada tinglovchi uchun tushinilishi qiyin bo'lib qoladi. Bu suhbat jarayonini zerikarli qiladi. O'quvchiga bu haqida tushincha berish uchun Abdulla Oripovning "g'aliz jumla" haqidagi fikrlari asosida berilgan mashqlar foydali bo'ladi.

Yangi darsliklarda ona tili fanini boshqa fanlar bilan (biologiya, fizika, tarix) bilan bog'lash orqali o'quvchining dunyoqarashi kengaytiriladi. "Fan va texnologiyalar" bo'limida keltirilgan uchar gilam haqidagi ertaklarning samolyot ixtiro qilinishiga turtki bo'lgani haqidagi matn o'quvchini fantaziya va real hayot o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga undaydi. Bu esa o'quvchida nafaqat til o'rganishgav, balki ixtirochilik va ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishni (Kreativlik va Kritik fikrlash) oshiradi.

5-sinf ona tili darsligi o'quvchilarni hayotga tayorlashning zamonaviy mexanizmi sifatida xizmat qilmoqda. Undagi topshiriqlar tizmi 4K kompetensiyalarini parallel ravishda rivojlantirib, o'quvchida mustaqil fikrlovchi, hamkorlikka ochiq va ijodkor shaxs sifatlarini shakllantiradi.

5-sinf ona tili darsligi tahlili shuni ko'rsatadiki, darslik mazmuni to'liq kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, undagi topshiriqlar o'quvchini faol izlanishga, muloqotga va jamoada ishlashga undaydi.

Darslikda muloqot ko'nikmasini uchun interfaol dialoglar va vaziyatli topshiriqlardan keng foydalanilgan. Masalan, "Milliy qadriyatlar" bo'limida o'quvchilarga o'zbekona urf-odatlar namoyon bo'ladigan vaziyatlardan birini tanlab, partadoshi bilan kichik dialog tuzish topshirig'i beriladi. Bu jarayonda o'quvchi:

- Fikrni mantiqiy tartibda bayon etadi;
- Muloqot madaniyatiga (salomlashish, minnatdorlik bildirish) amal qiladi;

● Darslikda keltirilgan “Sehirli soʻzlar”(Assalomu alaykum, Baraka toping, Rahmat) kabi iboralarni nutqda qoʻllash boʻyicha topshiriqlar oʻquvchining muloqot qobiliyatini bevosita amaliyot bilan bogʻlaydi.

Darslikdagi “Diqqat , loyiha!” va “Zukko kitobxon” kabi ruknlar kollabaratsiya koʻnikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan “Zukko kitobxon” loyihasining 6-bosqichida guruh aʼzolari bilan birgalikda “mutolaa sharhi jadvalini toʻldirish, takror fikrlarni umumlashtirish vazifasi yuklatiladi. Bu metod oʻquvchilarga quydagilarni oʻrgatadi:

- Umumiy maqsad yoʻlida birlashish;
- Vazifalarni oʻzaro taqsimlash;
- Guruh mafaatini oʻzmaqsadidan ustun qoʻygan holda, konstruktiv takliflar kiritish.

Kritik fikrlash oʻquvchidan maʼlumotni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini oʻrnatish va xulosa chiqarishni talab etadi. Darslikdagi “Hayitlik” matni asosida berilgan savollar bunga yorqin misol boʻla oladi: “ Nima uchun muallif bolaligida Hayit bayramini zoriqib kutar edi?” “Nega hikoya qahramoni chiroyli koʻylak kiyib olganidan xijolat boʻla boshladi?” Shuningdek, matn asosida qahramonlarga xos sifatlarni (masalan, onaning kuyunchagligi) aniqlash va buni matndagi gaplar bilan isbotlash topshirigʻI oʻquvchini chuqur mulohaza yuritishga majbur qiladi.

Darslik oʻquvchining ijodiy salohiyatini ochish uchun turli xil nostandart vazifalarni taklif etadi. Masalan, “Orzular sari dadil qadamlar” mavzusidagi taqdimot tayyorlash, videolavha asosida hikoya matni yaratish yoki asar qahramoniga maktub yozish kabi topshiriqlar shular jumlasidandir. Shuningdek, “Bastakor” sheʼri tahlili jarayonida oʻquvchilarga oʻzlari yoqtirgan sanʼat turlari haqida maʼlumot toʻplash va radionutq tayyorlash vazifasining berilishi ularning kreativ fikrlash doirasini kengaytiradi.

Interfaol metodlarning darslikdagi koʻrinishi

Darslikda 4K koʻnikmalarini shakllantirish uchun quydagi interfaol metodlardan unumli foydalanilgan:

“Case-study” (Vaziyatli tahlil): Hayotiy muammolarni (masalan, qoʻshni haqi, hashar, bayramlardagi oʻzaro munosabatlar) tahlil qilish orqali yechim topish.

“Loyiha ishi” : Uzoq muddatli yoki qisqa muddatli izlanishlar orqali mahsulot (taqdimot, jadval) yaratish .

“ Interfaol oʻyinlar” : “Kim oladi-ya shuginani-ya ?” kabi milliy oʻyinlar yoki “Zakovat” intellectual oʻyini haqidagi matnlar orqali bilim va tezkorlikni oshirish.

5-sinf ona tili darsligi oʻquvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirish uchun keng metodik imkoniyatlarga ega. Undagi topshiriqlar faqat til qoidalarini yodlashga emas, balki tilni ijtimoiy hayotda samarali qoʻllashga, jamoada hamkorlik qilishga va mustaqil, ijodiy fikrlashga yoʻnaltirilgan. Bu esa darslikning shu yoshdagi oʻquvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun samaralidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking.

2. Qo'chqorova Dinora Osomiddin qizi, "4K modeli asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent .: 2025, 56 b.

3. Toxirjon.U, Boshlang'ich sinflarda o'qishni yetkazib olishga qiynalayotgan o'quvchilar bilan ishlashda interfaol usullardan foydalanish, 2012, 9-13b.

4. Toxirjon.U, Xalqaro o'ish savodxonligini o'ganish (Pirls), 14-17b.